


# MIOKARD INFARKTINING SABABLARI, XAVF OMILLARI, KLINIK BELGILARI, TASHXISLASH USULLARI HAMDA ZAMONAVIY DAVOLASH YO'LLARI



Umarova Oysara Kazimovna

Qo‘rg‘ontepa Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi xirurgiya  
va reanimatsiya fani o‘qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada miokard infarktining sabablari, xavf omillari, klinik belgilari, tashxislash usullari hamda zamonaviy davolash yo‘llari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, infarktdan keyingi reabilitatsiya va kasallikning oldini olish bo‘yicha profilaktik choralar yoritilgan. Maqola tibbiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, shifokorlar hamda yurak salomatligi bilan qiziqadigan keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

**Kalit so’zlar:** Miokard infarkti, yurak xuruji, ateroskleroz, tromb, koronar arteriya, EKG, angiografiya, reabilitatsiya, yurak kasalliklari, profilaktika.

## KIRISH

**Miokard infarkti** - yurak mushagi ishemiyasining o’tkir davri bo’lib, u qon ta’minoti buzilganida qon yurakka oqishining to’xtashi bilan tavsiflanadi. Agar o’n besh daqiqa ichida qon yana oqishni boshlamasa, yurakning bir qismi o’ladi (yurak mushaklari nekrozi). Bu yurakning o’lik to’qimalarga ega bo’lgan qismi bo’lib, miokard infarkti deb ataladi. Nekroz keng yoki kichik o’choqli bo’lishi mumkin. Nekrozning joylashishiga ko’ra: old tomon miokard infarkti, yon tomon miokard infarkti va interventrikulyar infarktlar mavjud. 60 yoshgacha bo`lgan erkaklarda miokard infarkti xuddi shu yoshdagi ayollarga qaraganda besh marta tez-tez uchraydi. Bu erkaklarda aterosklerozning erta rivojlanishi bilan bog’liq.

## Sabablari

Miokard infarktining asosiy va eng ko’p tarqalgan sababi — yurak mushagini qon bilan va shunga mos ravishda kislород bilan ta’minlaydigan toj (koronar)

arteriyalardagi qon oqimining buzilishi. Ko'pincha bunday buzilish arteriyalar aterosklerozining fonida yuzaga keladi va unda tomirlarning devorida aterosklerotik pilakchalar (blyashkalar) paydo bo'ladi. Ushbu kasallikning boshqa sabablari:

- Yurak ishemik kasalligi;
- Qandli diabet, gipertoniya;
- Semizlikning har qanday bosqichi;
- Stressli vaziyatlar;
- Nikotin va spirtli ichimliklarga qaramlik.

### Miokard infarkti belgilari

Yurak xuruji rivojlanishida alomatlar darhol emas bosqichma-bosqich yuzaga keladi:

- Stenokardiya;
- Shundan so'ng, ko'krak qafasidagi yonish hissi bilan yurakda kuchli og'riqlar paydo bo'ladi. Og'riq qo'llarga, yelkaga, oshqozon va pastki jag'ga, shuningdek, tananing boshqa organlari va qismiga tarqalishi mumkin;
- Rangparlik, sovuq va yopishqoq teri chiqishi;
- Aritmiya;
- Ko'ngil aynishi, qayt qilish;
- Qo'rquv, xavotir, o'layotgandek his;

Yurak to'qimalarining nekrotik zararlanishi varaja (ya'ni yurak yetishmovchiligidagi og'ir asoratlar), past qon bosimi, nafas qisilishi, oyoq va qo'llarning shishishiga olib kelishi mumkin. Tomirlarda blyashkalar paydo bo'lishi davrida belgilari namoyon bo'lishni to'xtatadi.

### Tashxis

Miokard infarktini aniqlash uchun zamonaviy diagnostika usullari qo'llaniladi:

- Elektrokardiografiya (EKG): yurakdagi elektr faoliyatini o'zgarishini aniqlaydi
- Yurak markerlari (troponin, CK-MB): yurak mushagining shikastlanishini

ko'rsatadi

- Echokardiografiya: yurak mushaklarining qisqarish qobiliyati va strukturaviy o'zgarishlarini baholaydi
- Koronar angiografiya: arteriyalarning qanchalik tiqilganini ko'rsatadi, davolash taktikasini belgilashga yordam beradi

### Davolash:

Infarkt holatida tezkor yordam hayot uchun juda muhimdir. Davolash usullari:

### Farmakologik:

- Aspirin: qon ivishini kamaytiradi
- Nitratlar: yurak yukini kamaytiradi
- Beta-blokatorlar: yurak urishini sekinlashtiradi
- ACE-ingibitorlar: qon bosimini tushiradi, yurak mushagini himoya qiladi
- Statinlar: xolesterinni pasaytiradi

### Invaziv:

- Perkutan koronar intervensiya (angioplastika + stent): tiqilgan arteriyani ochib beradi
- Koronar arteriya bypass operatsiyasi: qon oqimini tiklash uchun aylanma yo'l yaratiladi.

### Reabilitatsiya

Miokard infarktidan so'ng yurakni tiklash va kelajakdagi infarktlardan himoyalanish uchun reabilitatsiya zarur:

- Jismoniy reabilitatsiya: yurak uchun xavfsiz mashqlar;
- Dori vositalarini doimiy qabul qilish;
- Ovqatlanish tartibini o'zgartirish (kam tuzli, kam yog'li);
- Psixologik yordam va stress nazorati;
- Chekish va spirtli ichimliklarni butunlay tashlash;
- Tibbiy ko'riklardan muntazam o'tish.

### Profilaktika

Miokard infarktning oldini olish uchun quyidagilarga amal qilish zarur:

- Sog'lom ovqatlanish: sabzavot, meva, baliq, don mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilish;
- Kuniga kamida 30 daqiqa jismoniy faollik;
- Ortiqcha vazndan xalos bo'lish;
- Chekishni tashlash;
- Qon bosimi, qand va xolestirin darajasini nazorat qilish;
- Stressni boshqarish usullarini o'rganish.

## XULOSA

Miokard infarkti yurak-qon tomir tizimining eng xavfli va hayot uchun tahdid soluvchi holatlaridan biridir. U yurak mushagining qon bilan ta'minlanishi to'satdan to'xtaganida yuzaga keladi va agar vaqtida yordam ko'rsatilmasa, og'ir asoratlar, hatto o'lim bilan tugashi mumkin. Zamonaviy tashxis usullari va davo choralarining mavjudligi infarkt oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi. Biroq kasallikning oldini olish, xavf omillarini nazorat qilish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va muntazam tibbiy ko'rikdan o'tish bu borada eng muhim omillardir. Miokard infarktining erta aniqlanishi va to'g'ri davolanishi inson hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari inson o'z salomatligiga bee'tibor bo'lmasligi kerak, har narsaga asabiylashish ham yurakka yomon ta'sir ko'rsatib og'ir kasalliklarga olib kelishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзакаримов М.М., Каримов Ш.К. "Кардиология", Тошкент: «Tibbiyot», 2020.
2. Harrison's Principles of Internal Medicine, 21st Edition. McGraw Hill Education, 2022.
3. Task Force of the European Society of Cardiology (ESC). "2023 ESC Guidelines for the management of acute coronary syndromes", European Heart Journal, 2023.
4. Kasani K.R., Movahed M.R. "Risk factors and outcomes in acute myocardial infarction", Journal of Clinical Medicine Research, 2021.

5. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi. "Yurak-qon tomir kasalliklari profilaktikasi bo‘yicha metodik qo‘llanma", Toshkent, 2022.